

O'ZBEK MUSIQIY FOLKLORISTIKASINING ILMUY-NAZARIY AHAMIYATI.

Yuldashev Umidjon Yuldashevich

“Musiqa nazariyasi va metodikasi”

kafedrasi dotsenti, PhD:

Nizomiy nomidagi TDPU “Musiqa madaniyati”

Fakulteti “Musiqa ta'limi” yo'nalishi 2-kurs talabasi:

Fayzullaxonova Vasilaxon Xamidullaxon qizi

Anotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek musiqiy folkloristikasining ilmiy-nazariy ahamiyati ifodalangan bo'lib, mazkur xalqning tarixini o'rganishimiz, uning xalq folklor namunalariga asoslangan holda ilmiy tahlil qilinganligini ko'rish mumkin. Xalq og'zaki ijodi namunalarida, eng avvalo, mifologik dunyoqarashdan poetik dunyoqarashga o'tish hodisasi namoyon bo'ladi. Tildagi hech bir so'z o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, u zarurat tufayli tarixiy taraqqiyot jarayonida yuzaga keladi yoki o'zlashadi. Maqola mazmun-mohiyatida shu kabi masalalar ham o'z ilmiy-nazariy ahamiyatini namoyon qiladi.

Kalit so'zlar: Doston, folklor, baxshichilik, maqom, matal, topishmoq, askiya, qo'shiq, aql-idrok, milliy ma'naviyat.

Xalq og'zaki ijodining o'ziga xosligi, uning qiymati, rang-barangligini isbotlab bergen allomalardan biri bu Hodi Zarifdir. U o'zining uzoq izlanishlari davomida o'zbek xalq dostonlarining o'ziga xosliklarini belgilab bergen hamda uni turli adabiyotlar ko'rinishida chop etib borgan. Shu sababli ham foklarni tahlil etish nafaqat xalqning qadimiy ildizini balki bugungi kunda o'zbek adabiyotini mukammal o'rgatishga xizmat qiladi. Tilni o'rgatishda folklor asarlarining janriy xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish talab etiladi. Doston, ertak kabi yirik epik janrlar til taraqqiyotida qanchalik muhim o'rin tutsa, qo'shiqlar, maqol, matallar kabi eng kichik janrlar ham birdek qimmatli va ahamiyatlidir. Folkloarning yozma adabiyotga ta'siri, umuman, so'z san'at haqida ketar ekan, folklor ko'plab san'atlarning ibtidosi ekanini, badiiy ijod, musiqa, raqs va tasviriy san'at ildizlari folklor bilan chambarchas bogiiq ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Qaysiki ijodkor folklor an'analari ichida yashagan, uni o'ziga singdirgan boisa, o'sha ijodkorning asari til jihatdan ham, badiiylik nuqtayi nazaridan ham ancha mukammal ekanligi kuzatiladi. Zero, milliy ong va tafakkurning shakllanishida badiiy asarning o'rni beqiyosdir. Yuksak saviyada ijro etilgan yoxud yozilgan har qanday badiiy asar-bu eng avvalo til hodisaside. Ona tilining eng go'zal jihatlarini, nozik tovlanishlarini namoyish eta olgan asargina mukammal asar hisoblanadi.

Har bir tilning o‘ziga xos milliy fazilatlari va go‘zalliklari bo’ladi. Ana shu fazilatlar va go‘zalliklarni faqat yuksak saviyadagi asarlarga namoyish eta oladi. Bunday asarda til yana bir bor yangilanadi, yana bir yuksak pog‘onaga ko‘tariladi. Bunday asar tafakkumi yangilaydi, tilga mehr uyg‘otadi, tilimizni har xil buzilishlardan asraydi. Demak, shuni xulosa qilish mumkinki, hozirgi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodni yanada iqtidorli, aql- idrokli bo‘lib yetishlari uchun, ham ma’nana ham jismonan rivojlantirish uchun bir qancha usullar va yo‘llarga egamiz. Shu usullardan samarali biri sifatida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanilsa, bu jarayonning yanada samaradorligini va foydalilagini ta’milagan bo‘lar edi. Ta’kidlash joizki, folklor namunalari azaldan tayanch vazifasini bajarib kelgan. Chunki u har qanday xalq taraqqiyotining yorqin namoyondasidir. Ayniqsa, hozirgi globallashuv sharoitida millatlarning tili, fikrlashi hamda ma’naviy dunyosini turli xavflardan , g‘araz niyatli kimsalarning yovuz niyatlaridan himoyalash kerak xuddi vatan chegaralarimiz mustahkam qo‘riqlangani kabi estetik didi, millat tilini himoya qilgan holda asrashimiz kerak. Mustaqillik va xalq ijodining o‘rganilishi masalalari, mustaqillik davri folklorshunosligining o‘ziga xos xususiyatlari, folklor – milliy ma’naviyatimizning asoslaridan biri sifatida.

Ma’naviyat kecha yoki bugun paydo bo‘lib qolgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan buyuk bir qadriyatdir. Inson dunyoga kelgan kunidan boshlab, to hayotining eng so‘nggi lahzasigacha o‘zi mansub xalqning qadriyatlari, an’analari ichida ulg‘ayadi, kamol topadi. Hatto o‘zini folklorga begona deb bilgan, bu atama ta’rifidan mutlaqo yiroq bo‘lgan kishi shu an’analari ichida ulg‘aygan, uning ongi, shuuri shu qadim an’analari ta’sirida shakllangan bo‘ladi. Har bir sohaning o‘z tarixi bo‘lganidan, folklorshunoslik borasidagi izlanishlarning ham o‘z ildizlari mavjud. Bu izlanishlar ildizi olis o‘tmishga borib taqaladi. [1.].

O‘z sohalarining ustalari mutaxasislar hisoblanadi. Misol qilib men xalq og‘zaki ijodi falklorni qo‘llayman. Xalq hayotida folklor asarlari badiiy aks etadi. Folklor har xil janrlari Tog‘ay Murod asarlarida ziynatlangan, matal, xalq qo’shiqlari, maqol, xalqimiz hayotida ko‘p uchraydi. Asarlarda falsafiy va go‘zal poetik umumlashlarni o‘z ichiga oladi. Bunda biz o‘z orzu va istaklarini o‘z ifodalab beradi. Folklor umuminsoniy g‘oyalarni tarannum etish bilan birgalikda kelajakka umid, ezgulik, insoniylik, mehr va sadoqat, oliyjanoblik, vatanparvarlik bilan bog‘liq milliy va ma’naviy qadriyatlarni shakillantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa mustaqillikdan so‘ng milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni tiklash, uni yosh avlodga yetkazish folklor an’analariiga etiborning yanada kuchayishiga sabab bo‘ldi. Ko‘plab adib va ijodkorlarimiz o‘zlari bevosa kuzatgan marosimlarni udumlarni o‘z yurti haqidagi qadimiy rivoyat va afsonalarni ijod jarayonida yaratayotgan asarlariga singdirib yuboradi. Shunday ijodkorlardan biri Tog‘ay Murod hisoblanadi. Adibning ko‘p yillik

kuzatishlari, o'rganishlari zamirida yuzaga kelgan har bitta asarida folklor an'analarini ko'rishimiz mumkin. U milliy va xalqona uslullarni, folklorning badiiy tasvir obyektini o'z asarlariga mahorat bilan olib kirdi, folklordan bahra olib, ulardag'i yuksak umuminsoniy g'oyalardan ta'sirlanib badiiy barkamol asarlar yaratdi. [2.]

Xalq ichida badiiy ijrochilikning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lgan. Bunda baxshichilik, doston, lapar yo'naliishlari Folkloristikada asosiy o'rini hisoblangan. Xalq ichida og'zidan og'zga o'tib kelgan laparlar, dostonlar, baxshichilik termalari mazmunan aytim yo'li bilan farq qilingan. Bunda lapar bir necha kishi yoki ko'pchilik bo'lib ijro etiladi. Dostonchilik ham og'zaki tarzda rivojlangan janrdir. Bu janr ham 1 ta yakkaxon ijrochi-xonanda tomonidan ijro etadi. Qo'shimcha o'zbek milliy cholg'usi do'mbira asosida Rustam, Alpomish, Kuntug'mish, Go'ro'g'li dostonlari xalq o'rtasida og'zaki ijod ham juda ajoyib va mashhurligi bilan alohida o'rin egallaydi. Har yili baxshichilar va dostonchilar uchun Qashqadaryo viloyatida baxshichilik va dostonchilik festivali o'tkaziladi. Bunda respublikamizning turli nuqtalaridan hatto Qoraqalpog'iston respublikasidan ham baxshichilar, dostonchilar kelishadilar qolaversa qo'shni respublikalardan ham dostonchiyu baxshichilar bu festivalga tashrif buyuradilar. Festival juda katta qiziqish bilan bir necha kun bo'lib o'tadi. Milliy an'analarimizni butun dunyodan tashrif buyurgan sayyoohlar ham katta qiziqish bilan tomosha qiladilar va qatnashadilar. Bunday milliy fesstivallarimiz sayyoohlar uchun olam-olam qiziqish uyg'otadi va har yili o'lkamizga tashrif buyuradilar.

Mustaqillik arafasida Jarqo'rg'onga O'zKP Markaziy Qo'mitasining kotibi (hali u kishi hayot, nomini keltirmayman) kelib, Navro'z bayramini ta'qiqlash bo'yicha katta yig'ilish o'tkazdi. «Bilib qo'ylaring, O'zbekistonda Navro'z bayrami va baxshilar hech qachon bo'lmaydi. Shu sababli hamma mas'ullarning o'zlari ham, yaqinlari, xodimlari ham hech qachon Navro'z bayramida qatnashmasin. Kimdaki kim bu ko'rsatmani buzsa, unga nisbatan qattiq chora ko'rishi haqida ogohlantirilsin», degan gaplari hozirgacha yodimda. Mustaqillik yillarda milliy o'zligimiz qayta tiklanib, so'nggi yillarda esa bu madaniy va moddiy merosimiz butun dunyoga keng tarannum etilmoqda. Jumladan, Navro'z millatlararo qadriyat sifatida YuNESKO ro'yxatida ham obro' topdi. O'zbekiston tashabbusi bilan YuNESKO shafe'ligida, baxshichilik sanati tufayli bizlarga yetib kelgan Alpomish dostonining 1000 yilligi jahonda keng nishonlandi. Bizning dostonlarimiz turli tillarga o'girilib, butun dunyoga tanilmoqda. Bunga misol qilib Alpomish dostonini aytishimiz mumkun bu esa baxshichilar tomonidan hozirgacha kuylanib kelayotgan nodir durdonaasar sifatida ulug'lanib kelindi, shu kungacha yetib keldi va butun dunyoga mashhur bo'ldi va barcha o'zbeklarning merosiga aylandi. Bunga ko'ra "Alpomish" dostoni – bu O'zbekistonning Boysunidan tortib, Qoraqalpog'istonning Qo'ng'irotingacha, Jizzaxning Zominidan tortib, Qashqadaryoning Dehqonobodigacha bo'lgan joylarda yashab, ijro qilib kelgan Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'lkan Shoир, Shoberdi baxshi

kabi ko'plab baxshicilarimiz tomonidan noyob ovozda uzoq yillardan beri kuylanib kelinayotgan milly merosimiz xisoblanadi. Ko'plab yillar mobaynida tillarda nomlari doston bo'layotgan ijodkorlarimizni davlatimiz yuksak 31 etiborga olib ularga tantali qilib turli ko'krak nishonlari daqdim etildi.Buning zamirida yoshlar o'rtasida bu yo'nalishga qiziquvchilar soni tobora oshdi,bundan tashqari qizlar ham bu baxshichilik san'at turiga qiziqib do'mbira olib qo'liga chertib kuylab kelmoqda.

Yurtimizda baxshichilik o'z an'ana, maktab va istiqboliga ega san'atga aylandi. Ayniqsa, keyingi yillarda milliylikni teran anglash va yoshlarda milliy qadriyatlar bilan faxrlanish tuyg'ularini mustahkamlash, vatanimiz hududi insoniyat madaniyatining ilk beshiklaridan bo'lganligi dalillarini jahon hamjamiyatiga yetkazish g'oyasi bevosita davlat rahbari tomonidan ilgari surilayotganligi tafsinga sazovor. Pandemiya butun jahonni, jumladan, qudratli davlatlarni ham sarosimaga solib qo'ygan bir paytda, ma'naviy boylik – baxshichilik san'atini rivojlantirish g'oyalarini ilgari surilishi xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Ularning fikricha, O'zbekiston rahbariyati bugungi kun tashvishlari bilan bir qatorda uzoq kelajak taqdiri va insoniyatning ma'naviy dunyosi haqida qayg'urayotganligi yaqqol ko'rinish turganligini ta'kidlashdi. 2018-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev qarori bilan Nukus va Termiz shaharlarida Xalqaro baxshichilik festivallari yuqori saviyada o'tkazildi va O'zbekiston hayotida katta madaniy voqealardan biri bo'ldi . [3.].

Bizning birgina nomoddiy merosimiz bo'lgan baxchilik san'at turini butun dunyo miliy merosi qatoriga qoshilgani o'zbeklarning faxri g'ururi yanada oshdi. Bu san'at turini yunosko o'z merosi qatoriga zar harflar bilan qo'shib qo'ydi Endi bu san'at turini butun dunyoga milliy meros sifatida tanitadi. Bizning asosiy maqsadimiz ham aynan shu emasmi bu milliy merosimizni butun dunyo xalqlari mehr bilan kuylasalar unga andoza bersalar va eng muhimi o'zbek degan yurt borligini yaxshi anglab yetsalar bizning yana bir eng buyuk maqsadlarimizdan biri amalga oshardi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. M.Jo'rayev J.Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. Toshkent: 2017 y 174-10b.
2. Ilm-fan+va+innovatsiya+1049.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Baxshi>.
4. Yuldashev, U. Y. (2021). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO THE PROFESSIONAL PREPARATION OF THE FUTURE MUSIC TEACHER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 56-61.
5. Yuldashev, U. (2023). EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH CULTURAL AND ARTISTIC EVENTS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 342-345.

6. Юлдошев, У. Ю. (2019). Мусиқа уқитувчиси мутахассислигининг замонавий модели ва профессиограммаси. *Современное образование (Узбекистан)*, (9 (82)), 47-53.
7. Юлдошев, У. Ю. (2017). Эксклюзивные свойства педагогической технологии в преподавании музыки. *Молодой ученый*, (22), 207-209.
8. Юлдошев, У. Ю. (2020). РОЛЬ АРТИКУЛЯЦИИ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЕ МАКОМА. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 87-89).
9. Yuldoshev, U. (2018). Problems of Choosing Methods and Technologies in Musical Pedagogics. *Eastern European Scientific Journal*, (2).
10. Юлдошев, У. Ю. (2024). ОЛИЙ ПЕДАГОГИК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЬАТИ МАСАЛАСИ. *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari*, 30(2), 133-139.
11. Sheraliyevna, S. D., & Yuldoshevich, Y. U. (2024). LEVEL OF VOCAL SINGING PERFORMANCE OF SPECIALIZED SCHOOL STUDENTS WITH DISABILITIES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(3), 141-146.
12. Yuldoshevich, Y. U. (2024). TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA OCHIQ DARSLARNING O'RNI. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 5(1), 223-226.